AUDITORLIK AMALIYOTIDA KORRUPSION RISKLARNI KAMAYTIRISH VA OLDINI OLISH STRATEGIYALARI

Botirov Lazizbek Botirovich
Audit kafedrasi PhD katta o'qituvchi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Axmedova Saboxatxon Ibroxim qizi
A-15 guruh magistratura bosqichi talabasi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatida mayjud bo'lgan korrupsion risklarni bartaraf etish va oldini olish strategiyalari tahlil qilinadi. Maqolada O'zbekistonning "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, Prezidentning 2025-yildagi korrupsiyaga qarshi kurash rejasi va xalqaro tajribalar asosida auditorlik sohasida shaffoflik, mustaqillik va hisobot berish tizimini takomillashtirish yo'llari ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korrupsion risklarni kamaytirish uchun qonuniy mexanizmlarni amalda qo'llash bilan birga audit tashkilotlari ichki nazorat tizimlarini ham mustahkamlash zarur.*

Kalit so'zlar. *auditorlik faoliyati, korrupsion risklar, mustaqillik prinsipi, audit standartlari, hisobot berish, O'zbekiston qonunchiligi, nazorat mexanizmlari, xalqaro tajriba.*

Аннотация. *В данной статье анализируются стратегии устранения и предотвращения существующих коррупционных рисков в аудиторской деятельности в Республике Узбекистан. На основе Закона Республики Узбекистан «Об аудиторской деятельности», Антикоррупционного плана Президента на 2025 год и международного опыта в статье указаны пути совершенствования системы прозрачности, независимости и отчётности в сфере аудита. Результаты исследования показывают, что для снижения коррупционных рисков необходимо наряду с практическим применением правовых механизмов укреплять также системы внутреннего контроля аудиторских организаций.*

Ключевые слова: *аудиторская деятельность, коррупционные риски, принцип независимости, аудиторские стандарты, отчётность, законодательство Узбекистана, контрольные механизмы, международный опыт.*

Annotation. *This article analyzes strategies for eliminating and preventing existing corruption risks in auditing activities in the Republic of Uzbekistan. Based on the Law of the Republic of Uzbekistan "On Auditing Activities," the President's 2025 Anti-Corruption Plan, and international experience, the article outlines ways to improve transparency, independence, and the reporting system in the auditing sector. The research results indicate that to reduce corruption risks, it is necessary to strengthen the internal control systems of audit organizations alongside the practical application of legal mechanisms.*

Keywords: *auditing activities, corruption risks, principle of independence, auditing standards, reporting, Uzbek legislation, control mechanisms, international experience.*

Kirish. Auditorlik faoliyati - iqtisodiyotning barcha sohalarida moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va to'g'riligini ta'minlash, korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish va investorlar huquqlarini himoya qilishning muhim omilidir. So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar davrida auditorlik nazoratining ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Biroq, auditorlik sohasida korrupsion risklarning mayjudligi nafaqat audit sifatiga, balki butun moliya hisoboti tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-71-sonli Farmoni korrupsiyaga qarshi kurashishni muhim milliy ustuvorlik sifatida belgilab berdi. Ushbu hujjat korrupsion risklarni aniqlash va bartaraf etish, davlat xizmatchilari tomonidan aktivlari deklaratsiyalashtirish tizimi, davlat xaridlari va investitsion loyihalarida shaffoflikni ta'minlash kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu maqolaning magsadi - O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va xalqaro tajribalar asosida auditorlik faoliyatida korrupsion risklarni kamaytirish va oldini olish strategiyalarini ishlab chiqishdir. Maqolada quyidagi vazifalarga e'tibor qaratiladi: auditorlik sohasidagi korrupsion risklarni aniqlash, O'zbekiston qonunchiligi va xalqaro standartlarni tahlil qilish, korrupsion risklarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Adabiyotlar sharhi. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi O'RQ-677-sonli "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni auditorlik faoliyatining asosiy prinsiplari va tartiblarini belgilab beradi. Ushbu qonunning 4-8-moddalarida auditorlik faoliyatining asosiy prinsiplari - mustaqillik, xolislik va halollik, chuqur kasbiy bilimga egalik, axborotning maxfiyligi kabi prinsiplar mustahkamlangan.

Qonunning 9-moddasida auditorlik faoliyati standartlari, 10-moddasida esa auditorlik faoliyati sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilangan.

Qonunning 11-moddasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatlari, xususan, auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibini belgilash, auditorlik tashkilotining ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish tartibini belgilash kabi vakolatlari ko'rsatilgan. 12-modda bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi auditorlik faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiruvchi, auditorlik tashkilotlari va auditorlar reyestrini yurituvchi vakolatli davlat organi hisoblanadi.

2018-yil 19-sentyabrdagi PQ-3946-sonli "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori auditorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini belgilab, 2019-yil 1-yanvardan boshlab auditorlik tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi bir qator me'yorlarni joriy etdi. Xususan, aktivlarning balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 100 ming barobar miqdoridan ortiq bo'lgan yoki xodimlarning o'rtacha yillik soni 100 kishidan ortiq bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi belgilandi.

Xalqaro amaliyotda auditorlik faoliyatida korrupsion risklarni kamaytirishning bir qator samarali usullari mavjud. Xalqaro Audit va Kafolat Standartlari (IAASB) tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro audit standartlari auditorlik faoliyatini amalga oshirishda yagona talablarni belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibini belgilash vakolatiga ega.

Yevropa Ittifoqi, Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro standartlarini belgilaydi. O'zbekiston 2025-yil oktabr oyida bo'lib o'tgan Toshkent Korrupsiyaga Qarshi Kurash Forumi davomida xalqaro tajribalar, shu jumladan, "Islands of Integrity" metodologiyasi, ochiq ma'lumotlar asosida korrupsiyaga qarshi kurashish, sun'iy intellekt asosidagi platformalar va korrupsiya haqida xabar beruvchilarni himoya qilish kabi usullarni muhokama qildi.

Transparency International, OECD va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korrupsion risklarni kamaytirishda quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega: shaffoflik, hisobot berish, qonun ustuvorligi, mustaqil nazorat va jamoat ishtiroki.

Tahlil va natijalar. Auditorlik faoliyatida korrupsion risklarning asosiy manbalari**.** Tadqiqot natijalariga ko’ra O'zbekiston auditorlik amaliyotida quyidagi korrupsion risklar mavjud:

- Manfaatlar to'qnashuvi: Auditorlik tashkilotlari tomonidan o'zining muassislari, ishtirokchilari yoki aksiyadorlari bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan auditorlik tekshiruvi o'tkazish. Qonunga binoan, bunday hollarda auditorlik tekshiruvini o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.
- Malakasiz auditorlar: Auditorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning yetarli darajada malakaga ega bo'lmaganligi. O'RQ-677-sonli Qonunga muvofiq, auditor malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs hisoblanadi.
- Noaniq me'yorlar: Auditorlik faoliyati standartlarining aniq belgilanmaganligi yoki amalda qo'llanilmaganligi. Qonunning 9-moddasida auditorlik faoliyati standartlari belgilangan.
- Nazoratning yetarli emasligi: Auditorlik tashkilotlari faoliyatini muntazam ravishda tashqi nazorat qilish tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi. Vazirlar Mahkamasi auditorlik tashkilotining ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish tartibini belgilaydi.

O'zbekiston qonunchiligining korrupsion risklarni bartaraf etishdagi ahamiyati:

- O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni va Prezidentning 2025-yildagi korrupsiyaga qarshi kurashish rejasi korrupsion risklarni kamaytirishga qaratilgan bir qator muhim qonunchilik choralarini o'z ichiga oladi.
- Mustaqillik prinsipi: Qonunning 5-moddasida mustaqillik prinsipi belgilangan bo'lib, auditor o'z faoliyatini amalga oshirishda mustaqil bo'lishi kerak. Qonunning 44-moddasida auditorlar reyestridagi ma'lumotlar ochiq tarqatiladi, bu esa shaffoflikni ta'minlaydi.
- Xolislik va halollik prinsipi: Qonunning 6-moddasida xolislik va halollik prinsipi mustahkamlangan bo'lib, bu korrupsion xatti-harakatlarning oldini olishga qaratilgan.
- Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish: Qonunga muvofiq, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan auditorlik tashkiloti tashkil etilishi mumkin emas. Bu qoida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida belgilangan.
- Xalqaro standartlarni qo'llash: 2018-yil 19-sentyabrdagi PQ-3946-sonli Qarorda belgilanganidek, auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatini faqat Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi tomonidan nashr etiladigan xalqaro audit standartlari asosida amalga oshiradi. Bu xalqaro amaliyotga moslashtirish korrupsion risklarni kamaytirishga yordam beradi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, quyidagi usullar auditorlik sohasida korrupsion risklarni samarali kamaytirishga yordam beradi:

- Korrupsiya haqida xabar beruvchilarni himoya qilish: 2025-yil oktabr oyida bo'lib o'tgan Toshkent Korrupsiyaga Qarshi Kurash Forumi davomida "Korrupsiya va korrupsion huquqbuzarliklar to'g'risida xabar beruvchi shaxslarni himoya qilish to'g'risida"gi Qonun loyihasi muhokama qilindi. Xabar beruvchilarni himoya qilish mexanizmi auditorlik faoliyatidagi korrupsion holatlarni ochishga yordam beradi.
- Ochiq ma'lumotlar platformalari: Forumni tashkilotchilardan biri Nataliya Karfi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha "Ochiq qo'llanma"ni taqdim etdi, unda ochiq ma'lumotlardan foydalanishning ahamiyati ta'kidlangan. O'zbekiston Moliya vazirligi tomonidan auditorlik tashkilotlari va auditorlar reyestrini onlayn tarzda ochiq e'lon qilish shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.
- Sun'iy intellekt asosidagi platformalar: 2025-yildagi korrupsiyaga qarshi kurash rejasida mobil qurilmalar orqali oddiy va qulay tarzda javob beradigan sun'iy intellekt asosidagi onlayn platformani joriy etish ko'zda tutilgan. Bunday platforma auditorlik xizmatlari sohasida korrupsion risklarni kamaytirishga yordam beradi.
- "Integritet orollari" metodologiyasi: 2025-yilgi Toshkent Korrupsiyaga Qarshi Kurash Forumi davomida mahalliy hokimiyat organlari uchun "Integritet orollari" metodologiyasi muhokama qilindi. Ushbu metodologiya Toshkent shahri (Mirzo-Ulug'bek tumani), Jizzax viloyati (Jizzax shahri) va Buxoro viloyati (Vobkent tumani)da amaliyotga joriy etilgan. Xuddi shu metodologiyani auditorlik tashkilotlarida qo'llash ularning ish sifatini oshirishga yordam beradi.

Xulosa. O'zbekistonda auditorlik faoliyatida korrupsion risklarni kamaytirish va oldini olish quyidagi strategiyalar asosida amalga oshirilishi mumkin:

- Qonunchilikni takomillashtirish: O'RQ-677-sonli Qonun va 2025-yildagi korrupsiyaga qarshi kurash rejasida belgilangan normalarni amalda qo'llashni ta'minlash. Xususan, mustaqillik, xolislik va axborotning maxfiyligi kabi prinsiplarga qat'iy rioya qilish.
- Xalqaro standartlarni joriy etish: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolati asosida auditning xalqaro standartlarini O'zbekiston hududida qo'llashni kengaytirish.
- Nazorat tizimini mustahkamlash: Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan auditorlik tashkilotlarining ishi sifatini tashqi nazorat tizimini samarali amalga oshirish.
- Malakani oshirish tizimini takomillashtirish: Qonunning 10-moddasida belgilanganidek, auditorlarni kasbga tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish.
- Xalqaro hamkorlikni kengaytirish: OECD, Yevropa Ittifoqi va BMTning korrupsiyaga qarshi kurash tashkilotlari tajribasidan foydalanish.

- Jamoatchilikni jalb qilish: Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati tashkilotlarining rolini kuchaytirish.

O'zbekiston auditorlik sohasida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirmoqda, biroq korrupsion risklarni bartaraf etish bo'yicha ishlar hali davom etmoqda. Qonunchilik bazasini takomillashtirish, xalqaro standartlarni joriy etish, nazorat tizimini mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali O'zbekistonda auditorlik faoliyatidagi korrupsion risklarni sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-677-son, 25.02.2021. Lex.uz.
2. "O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-71-son, 21.04.2025.
3. "Auditorlik faoliyati bo'yicha yangi qonun qabul qilindi. Unda qanday yangiliklar ko'zda tutilmoqda?" Kun.uz, 02.03.2021.
4. "O'zbekistan Deepens Its Anti-Corruption Efforts Through a Series of Thematic Discussions". Yevropa Ittifoqi Delegatsiyasi veb-sayti, 22.10.2025.
5. "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, PQ-3946-son, 19.09.2018. Lex.uz.